

OILADA BOLALARNI MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Navoiy davlat universiteti

“Pedagogika ” kafedrası

katta o'qituvchi vb dotset

Feruza Xamidova Turdiyevna

Berdiyeva Shaxnoza Ulug'bek qizi

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs “F” guruh

Anotatsiya: Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qadriyatlarning mazmun-mohiyati. Qadriyatlarning milliy va umumiy asosiy turlarga ajratilishi. Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning qadimgi asoslari. Oilaviy tarbiyaning milliy qadriyatlar bilan bog'liqligi.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish bizning milliy pedagogikamizda azaldan mavjud bo'lgan va turli davrlarda u o'ziga xos ko'rinish hamda mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan. Bu tarbiya sohasi o'zining turli-tumanligi jihatdan qadriyatlar yo'nalishlari bilan bog'lik bo'lib, uning bolalar dunyoqarashi hamda ruhiyatiga ta'sir etib, ma'lum bir ko'nikmalar hosil qilishi juda bir murakkab jarayondir. Ushbu murakkab jarayon qadriyatlarning yuzaga kelish asoslari bilan bog'likdir.

Qadriyatlar inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlarini yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Bular: tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar); iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari); ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, xamkorlik); ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar); falsafiy qadriyatlar (g'oyalar, mafkuralar, konsepsiyalar);

badiiy qadriyatlar (san'at, adabiyot, madaniyat); diniy qadriyatlar (iymon, e'tiqod, vijdon, savob) kabi qadriyatlarni qayd etish mumkin bo'ladi. SHu bilan birga fanda qadriyatlarning milliy va umum insoniy turlarga ajratilishi an'ana tusiga kirgan, milliy qadriyatlar ma'lum bir millat, xalq va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma'naviy) boyliklari yig'indisidan iboratdir.

Umuminsoniy qadriyatlar tabiatni muhofaza qilish, madaniyatni rivojlantirish, inson sog'ligini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya-yoqilg'i tanqisligining oldini olish, turli tahdidlarni bartaraf etish, sivilizatsiya taraqqiyotini davom ettirish kabi sohalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Qadriyatlar turli-tuman bo'lishi bilan birga «dunyoda eng oliy qadriyat - inson» hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma'naviy, tarixiy hamda ta'limiy jihatlari o'ziga xos yangicha fikrlash va yondoshishlar asosida yurtboshimiz asarlarida batafsil yoritilgan [3].

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning mazmun-mohiyatini yurtboshimiz asarlaridagi g'oyalardan kelib chiqqan holda «o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda komil inson etib tarbiyalash» jarayoni sifatida izohlash mumkin bo'ladi. SHundan kelib chiqqan holda magistrlik dissertatsiyasi mavzusini "Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari" deb nomladik.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mavzuning mazmun-mohiyati, maqsadi o'zining asoslari va yo'nalishi jihatdan ijtimoiy, falsafiy, didaktik, psixologik, badiiy hamda diniy yo'nalishlarga egadir. Uning ijtimoiy asosi jamiyatdagi barcha munosabatlarda birlamchiligi bilan ajralib turadi va o'zida mavzuga oid barcha jihatlarni uyg'unlashtiradi. Mavzuning barcha jihatlari turli davrlarda turli darajada, turli yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsada, ularning nisbatan tarqoqligini qayd etish lozim bo'ladi. Ushbu tadqiqotlar o'zining ko'lam va yo'nalishi jihatidan boshqa tadqiqotlar doirasidagi izlanishlar, kichik cheklangan ilmiy izlanishlarga bo'linib, ularda yirik hajmdagi maxsus ilmiy tadqiqotlar ko'zga tashlanmaydi.

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish sohasini tadqiqot asoslariga ko'ra quyidagi yo'nalishlarda o'rganilganligini qayd etish mumkin bo'ladi:

Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning qadimgi asoslari. Bu asosan, islom dinigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga olgan asarlarda (kulyozmalar, "Avesto" kitobi, tosh bitiklari va osori-atiqalarda) o'z aksini topgan [6]

Oilaviy tarbiyada milliy-diniy qadriyatlar ta'sirining islomiy asoslari. Bu asoslar buyuk tafsirchilar, hadisshunoslar, mutassavuf olimlar qarashlarida, Kur'oni Karimda, Hadisi SHarifda hamda O'rta asr yozma manbalarida mujassamlash

[11; 12].

Oilaviy tarbiyada insoniy qadriyatlar ta'sirining komusiy allomalar hamda mumtoz adabiyot vakillari tomonidan yoritilishi va ularning g'oyalariga tayangan asoslar. Ushbu asoslar Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, YUsof Xos Hojib, Muslihiddin Sa'diy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar asarlarida o'z aksini topgan [20]. Bu yo'nalishdagi asarlar orasida ayniqsa, Unsurul Maoliy Kaykovusning «Kobusnoma» didaktik asari muhim o'rin egallaydi. Unda oilaviy tarbiya va milliy qadriyatlarning barcha qirralari o'ziga xos munosabatlar tarzida yoritilgan [21]

Oilada bolalarni milliy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ma'rifatparvar jadidchilik g'oyalaridagi asoslari. Bu asoslar o'lkamizda Maxmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat asarlarida keng yoritilgan [22:]

5.Oilaviy tarbiyada bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning sho'ro davri asoslari. Bu asoslar sho'rolar davri me'yoriy xujjatlari va pedagogikaga oid asrlarida aks etadi [25; 26]

6. Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarni joriy etishning milliy istiqlol g'oyasi asoslari. Bu yo'nalish asoslari «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, [27; 28].

Oilaviy tarbiyada bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish sohasi bo'yicha olib borilgan ishlar hamda asarlar tahliliga oid ma'lumotlardan kelib chiqqan holda quyidagilarni qayd etish mumkin:

Oilaviy tarbiyaning milliy qadriyatlar bilan bog'liq asoslari qadimda urug'-qabila munosabatlari hamda patriarxal oila tizimidan kelib chikadi. Uning qisqacha tarzda izohlanishi «Avesto» da «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» kabi gumanistik «uchlikda» namoyon bo'ladi.

Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanishning O'rta asrlar davri bo'yicha quyidagi qisqacha mulohazalarni kiritish lozim buladi: oilaviy tarbiyaning islomiy qadriyatlari «tafsirchilikda - iymon», «Xadisshunoslikda - amal» «tasavvufchilikda - haqiqat» sifatida bolalar ongiga singdirilib borilgan.

Oilaviy tarbiyada Alloh kalomi va Payg'ambarimiz sunnatlar orqali milliy qadriyatlarning sindirilib borishi ularda ma'naviy-axloqiy tarbiya ko'nikmalarni shakllantirib borish bilan bir qatorda ularda o'ziga xos e'tiqodni ham yuzaga keltiradi.

Oilaviy tarbiyaning milliy qadriyatlar jihatlari qomusiy allomalar ijodida «Ruh va aql munosabati» (Farobiy), «ruhni anglash» (ibn Sino), «aqlni chaxlash» (Beruniy), «Qadimgi tarix va yodgorliklarga e'tiqod» (Beruniy, Ulug'bek) kabi asoslar sifatida namoyon bo'ladi. Ularning qarashlarida har bir yo'nalish o'zining pedagogik (psixologik, didaktik) asoslangan chuqur mulohazalarga ega.

Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlarning aks etishi mumtoz adabiyotda «Insonparvarlik», «Adolat», «Ezgulik», «Erkinlik», «Halol mehnat», «To'g'ri so'zlik», «O'zaro yordam» va «Go'zallik»ni madh etish hamda insoniyatni shunga chorlash sifatida kuzatiladi. Bu adabiyot o'zining insonparvarlik asoslari bilan bir qatorda, bir vaqtning o'zida barcha davrlar uchun ham hayotiy ekanligini namoyon etib kelmoqda, uning hayotbaxsh qirralari Navoiy «Xamsa» si, Bobur g'azallari, Xayyom «To'rtliklari», Sa'diy «Bo'stoni», Firdavsiy «SHohnoma»si, Qoshg'ariy naqlari va Nodira ko'z yoshlari kabilarda yorqin namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida oila va milliy qadriyatlarning rivojlanishi yonma-yon kechgan o'zaro bog'lik va uzluksiz jarayondir. Ularning rivojlanish shakllari turlicha kechgan bo'lsada, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari jihatdan ularni bir qancha umumiyliklar bog'lab turadi. SHunday umumiyliklardan biri bu tarbiya sohasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020)
2. Abdullayeva SH.A. Istoriya pedagogiki. Svidetelstvo intellektualnoy sobstvennosti № 122; 2019
3. Abdullayeva, SH. A. (2019). Obrazovaniye cherez vsyu jizn: neprerывnoye obrazovaniye v interesax ustoychivogo razvitiya. In Obrazovaniye cherez vsyu jizn: neprerывnoye obrazovaniye v interesax ustoychivogo razvitiya (pp. 4-10).
4. Abdullayeva SH. A., & Zaynitdinova, M. A. (2018). Sovershenstvovaniye kachestva obrazovaniya v sisteme perepodgotovki i povыsheniya kvalifikatsii pedagogicheskix kadrov. Nauchnyy rezultat. Pedagogika i psixologiya obrazovaniya
5. Kaykovusning «Kobusnoma» asari